

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Umirzakova Sevinchbonu Marg'obiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Tangirov Xurram Ergashevich

Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt o'rni va ahamiyati, shuningdek suniy intellektini ta'limda qo'llashning ijobiy va salbiy oqibatlari ko'rib chiqilgan. Ta'lim sohasiga sun'iy intellektni tizimlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va imkoniyatlari hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, intellekt, aql, zamonaviy ta'lim, sun'iy intellekt, fan, ta'lim.

Mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning amalga oshirilishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarining katta ahamiyati va salohiyatini etirof etgan holda ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Texnologik taraqqiyot davrida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar hayotning turli sohalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida bu sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim kasb etmoqda.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqbollari hozirda butun dunyo bo'ylab keng muhokama qilinayotgan masaladir. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt o'qitish jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish,

o'quvchilarni ilmiy salohiyatini rivojlantirish va ta'limni yanada demokratlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Zamon shiddat bilan o'sib bormoqda. 20 yil avval tugmali telefon ko'tarib yurgan odam hammani e'tiborini o'ziga jalb qilgan bo'lsa, bugun o'sha telefonlar orqali yaqinlarimiz bilan bir-birimizni ko'rib muloqot qilishimiz, hattoki bizdan uzoqda bo'lsalarda, uyga yoki o'zimiga bozorlik qilishimiz, farzandimizni maktabdagi hayotini kuzatishimiz va yana juda ko'plab ishlarni bajarishimiz oddiy holga aylandi. Bu kabi oddiy holga aylangan turmush tarzimiz bevosita raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga bog'liq. Ayniqsa, sun'iy intellekt innovatsion texnologiyalar bilan yashash tarzimizni butkul o'zgartirdi. Sun'iy intellekt hammaning turmush tarziga juda tez kirib keldi va jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini o'tkazib, aql bovar qilmaydigan o'zgarishlar yasadi.

Bugungi kunda, ta'lim sohasida sun'iy intellekt intensive ravishda o'z o'rnini egallayapti. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, o'zgartirish va tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan axborot tizimlarni yaratishda katta rol o'ynaydi. Umumiy olganda sun'iy intellekt nafaqat ta'lim sohasida, balki ko'plab sohalarda ko'plab foydalarni olib kelyapdi.

Shuningdek sun'iy intellekt ta'lim oluvchini vaqtini tejashga va ta'limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sun'iy intellektning imkonitalari keng qamrovli bo'lib, u bizni qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimot yaratishi va hattoki, turlireferat va maqolalar yozib bera olish imkoniyatiga ega. Uning ta'lim algoritmlari, talabalarning individual xususiyatlari va o'rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir talabalarning o'ziga xos ta'lim yo'lidagio qobiliyatlarini oshiradi.

Shu bilan birga mobil qurilmalar, aqlli doskalar, planshetlar, noutbuklar, virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida o'qitish vositalarining joriy etilishi ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda talabalar datrga tayyorgarlik va mustaqil mustaqil tadqiqot ishlarini amalga oshirish davomida qog'oz va qalamdan foydalanish

o'rniga, har xil turdagi taqdimot va loyihalarni yaratish orqali ta'lim jarayoniga yangilik olib kirishlari, og'ir kitoblarni doimiy ravishda o'zlari bilan olib yurmasdan, elektron kitoblardan foydalanishi mumkin. Bu orqali ular ko'lab qulayliklarga erishishlari va oz vaqt davomida ko'plab bilimlarni egallashlari mumkin. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarga dars rejalarini tuzish, o'quvchilar rivojlarini kuzatish va baholashda yordam beruvchi AI-asosli vositalar joriy etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash kelajak avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o'qitish usullarini takomillashtiradi, balki o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi va ularni global mehnat bozoriga tayyorlaydi. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilash, bilimlarni keng ommaga yetkazish va ta'lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni va sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qulay va shaxsiylashtirilgan qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida ta'limda sifatni oshirish, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish va o'quvchilarga kelajakda muvaffaqiyatli kasblar uchun zarur ko'nikmalarni berish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda ham raqamli ta'limning rivojlanishi, ta'lim tizimining global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berish uchun elektron qurilmalar, dasturlardan foydalaniladi va texnologiyani ta'limga kiritadi. An'anaviy sinf xonasi kompyuterlar va Internet orqali raqamli sinfga aylantiriladi. O'quvchilar texnologiya va murakkab asbob-uskunalar yordamida yanada samaraliroq o'rganishlari va muvaffaqiyatlarini kuzatishlari mumkin. Yaqin kunlarda ushbu texnologiyalar o'quvchilarning raqamli ta'lim muhiti va samaradorligini oshirish uchun ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etiladi. Zamonaviy texnologiyalar iqlim o'zgarishi, havo va suv xavfsizligi, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, falokatlariga chidamlilik va boshqalar kabi sohalarda uzoq muddatli qarorlar qabul qilish uchun murakkab ma'lumotlarni

tahlil qilish va boshqarishda, ijtimoiy o'sishda muhim rol o'ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 475-son qarori 2021-yil 31-iyul
3. Oripov J., To'xtayev O. "Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati". — Science and innovation elektron jurnali. № 6, avgust, 2022 yil. 308-312
4. Norov M.M. "Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishi". Scholar elektron jurnali. № 31, 2023 yil. 4-7.
5. Usmonaliyeva M.K "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari va sohada amalga oshirilayotgan ishlar" "Academic Research in Educational Sciences (ARES)" ilmiy jurnali Volume 4 | CSPU Conference 1 | 2023 yil
6. Mamasoatov D.R Types of pedagogical technology and lesson modules Educational Research in Universal Sciences, 2023 c www.erus.uz